

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 312 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari .....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida .....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'larning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lum sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export .....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari .....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari .....	54
Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari .....	68
Uralov Olimjon Muhammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil .....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar .....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili .....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xuriniso Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati .....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash .....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati .....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari..... <b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	122
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari..... <b>Davronbek Sharibjonovich Raximov</b>	127
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili..... <b>Aminov Farrux Farxadovich</b>	133
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari..... <b>G. J. Jumayeva</b>	138
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari.... <b>Mirsodiqov Abdulla Tursunallyevich</b>	141
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar .. <b>Nematova Shaxlo Egamberdiyevna</b>	146
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari..... <b>Xakimov Zohid Norbo'tayevich</b>	149
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish..... <b>Zoirov O'lmas Erkin o'g'li</b>	158
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash .. <b>Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna</b>	164
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана..... <b>Иноятыова Камола Фуркатовна</b>	168
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni .. <b>X. X. Ikramov</b>	172
Korporativ boshqaruvi tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari .. <b>Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li</b>	176
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida)..... <b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov</b>	182
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... <b>Rabimqulov Sherzod Murtozayevich</b>	189
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari .. <b>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</b>	193
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi..... <b>Boltaboev Murodbek Aybekovich</b>	198
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi .. <b>X. I. Boyev</b>	203
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi .. <b>Axmedova Dilrabo Kurbondurdji qizi</b>	207
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak..... <b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	216
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili..... <b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>	220
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования..... <b>Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамирова Мафтуна Турсуналт кизи</b>	227
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность .. <b>Шермаматова Иорда Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли</b>	232
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности .. <b>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</b>	238
Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики..... <b>Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	243



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг .....	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati .....	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy .....	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari .....	278
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari .....	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirdorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi .....	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budgetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi .....	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish .....	300
Qurbanova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi .....	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	



# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLAR SMETALARI IJROSI HISOBINI YURITISH TARTIBI

UDK: 37:336.1

**AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lrim muassasalarida smetalar ijrosi hisobini yuritish tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Oliy ta'lrim muassasalarida smetalar ijrosi hisobini yuritish zarurligi nazariy jihatdan asoslangan. Unda oliy ta'lrim muassasalarida smetalarni tuzish va tasdiqlash va hisobining yuritilishining nazariy tartibini amaldaqi holatini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Oliy ta'lrim muassasalarida smetalarni tuzish va ijrosi hisobining yuritilishining tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lrim muassasasi, moliya yili, xarajatlar, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, hisobotlarning shakllantirilishi.

**Abstract:** This article describes the research conducted on the improvement of the procedure for keeping accounts of the execution of estimates in higher education institutions. the need to keep accounts of the execution of estimates in higher education institutions is theoretically based. In it, research was carried out to identify existing problems by analyzing the actual situation of the theoretical procedure of calculation and approval of estimates in higher education institutions. A scientific and practical proposal and recommendations were made on improving the procedure for the preparation of estimates and the execution of the calculation in higher education institutions.

**Key words:** Institution of higher education, fiscal year, expenditure, expenditure estimate, expenditure item, income and expenditure estimate, preparation of reports.

**Аннотация:** В данной статье описаны исследования, проведенные по совершенствованию порядка ведения учета исполнения смет в высших учебных заведениях. Теоретически обоснована необходимость ведения учета исполнения смет в высших учебных заведениях. В нем проведены исследования по выявлению существующих проблем путем анализа фактического положения теоретического порядка расчета и утверждения смет в высших учебных заведениях. Сделаны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию порядка составления сметы и выполнения расчета в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Высшее учебное заведение, финансовый год, расходы, смета расходов, статья расходов, смета доходов и расходов, подготовка отчетов.

## KIRISH

O'zbekistonda davlat moliysi va budget mablag'laridan foydalanish borasida keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, budget ijrosining g'aznachilik tizimini joriy qilinishi, sohada ko'plab suiste'molchilik va ortiqcha xarajatlarni oldini olishga xizmat qilib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, ba'zi oliy ta'lrim muassasalarida kommunal xarajatlar, ularning xarajatlar smetalarida belgilangan miqdordan oshib ketishi hollari ham mavjud. Buning sababları nafaqat smetalar ijrosiga mas'ul shaxslarning me'yoriy hujjalardan yetarlicha tanish emasliklari, ba'zi hollarda beparvoliklari ham sabab bo'lmoxda.

2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishdan iborat taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlab qolish uchun xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda davlat budgetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda davlat mablag'ları haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash<sup>[1]</sup>ga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Davlat budgeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, oliy ta'lif muassasalarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budget mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori<sup>[3]</sup> qabul qilingan. Ushbu qarorda budget mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budget va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun oliy ta'lif muassasalari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish nazarda tutilgan.

Ma'lumki, oliy ta'lif muassasalarini budgetdan mablag' bilan ta'minlash, ularning budgetdan tashqari daromalari va xarajatlari, shuningdek mazkur mablag'lardan foydalanish qat'iy rejalashtirilgan holda tuzilgan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Bu esa, buxgalteriya hisobini asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan nazorat yordamida Oliy ta'lif muassasalarida buxgalteriya hisobini oldiga mazkur xarajatlar smetasi ijrosini nazorat qilish vazifasini yuklaydi. Bundan tashqari, oliy ta'lif muassasalari tomonidan tuzilayotgan hisobot-larga budget tashkilotining kelasi moliya yili uchun budgetdan mablag'larni rejalashtirishda zarur bo'ladigan moliyaviy axborotlar olish imkonini beruvchi ma'lumotlarni berish vazifasini ham yuklaydi.<sup>[2]</sup>

Bu albatda, oliy ta'lif muassasalarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibini takomillashtirishni ilmiy jihatdan to'liq hal etilmaganligi tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbliligidan dalolat beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilashda, davlat mablag'larini maqsadli, samarali sarflanishi, shuningdek, davlatning mol-mulkari va majburiyatlar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinishida budget hisobining ma'lumotlariga asoslanadi.

M.Ostanaqulovning fikricha, xarajatlar smetasi asosiy reja hujjati hisoblanib, tashkilotni saqlash uchun budgetdan beriladigan kvartallar bo'yicha taqsimlanadigan xarajatlar va maqsadli yo'nalishli, hajmini aniqlaydigan hujjatdir.<sup>[4]</sup>

Saxarsevaning fikricha esa oliy ta'lif muassasalari smetasi asosiy reja hujjati hisoblanadi, olinadigan daromadni tasdiqlaydigan va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beradigan, mablag'larning yo'nalishi va hajmini aniqlaydigan, yil davomida o'z funksiyasini va maqsadini amalga oshiradigan va budgetni amalga oshiradi.<sup>[5]</sup>

Oliy ta'lif muassasalarida smeta asosiy hujjat hisoblanadi, maqsadli tushumlar, hajmini aniqlashi va mablag'lardan foydalanishi, yil davomida tashkilotni asrash uchun mablag' ajratilishi mumkin. Smetaning ajralmas qismi mablag' ajratish rejasi bo'lib, uni kvartallar bo'yicha taqsimlab yillik summa ham ko'rsatiladi. Smetadan farqli ravishda, budgetdan maqsadli pul ajratishda xarajatlar quyidagi iqtisodiy klassifikatsiya bo'yicha turkumlanadi:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqa va kam ta'minlanganlarga moddiy yordam, stipendiya va boshqalar);
- ish haqidan ajratmalar;
- Kapital qo'yilmalar (davlat investitsion dasturida ko'zda tutilgan va adres ro'yxati bo'yicha);
- boshqa xarajatlar.

Ibragimov va Sugirbaev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan mablag' ajratish smetasi va rejasining shakllari tasdiqlanadi. Adabiyotlarga ko'ra, smeta quyidagicha guruhlanadi: individual, yig'ma va markazlashgan tadbirlar smetasi. Oliy ta'lif muassasalarida daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining buxgalteriya hisobini yuritilishi yordamida budget va budgetdan tashqari mablag'lar xarajatlar smetalari ijrosi jarayonida moliyaviy, nomoliyaviy aktivlari, debitorlik va kreditorlik majburiyatları, joriy, yakuniy moliyaviy natijalari bo'yicha axborotlar shakllantiriladi va taqdim etiladi.<sup>[6]</sup>

S.Mehmonovning ilmiy ishlariда yoritilganidek, oliy ta'lif muassasalarida smeta tuzish bilan bog'liq buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni muomalalarini hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;
- Oliy ta'lif muassasalarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi natijalarini shakllantirish;
- Budget ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzish;
- Buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar.<sup>[6]</sup>

Xarajatlar smetasi – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan budgetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi. Oliy ta'lif muassasalari tomonidan belgilangan tartibda budget va budgetdan tashqari mablag'lar daromadlari va xarajatlar bo'yicha smetalari tuziladi va tasdiqlanib ijrosi ta'minlanadi. Bunda o'zbekiston respublikasi va qoraqalpog'iston respublikasining respublika budgetlarida hamda mahalliy



budjetlarda turuvchi tashkilotlarni moliyalashtirish, ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplash uchun budjetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan Oliy ta'lif muassasalari budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar va daromadlar smetalarini tuzishlari zarur.

Budget tizimi ko'p tarmoqli bo'lib, unda oliy ta'lif muassasalari alohida ahamiyatga ega. Oliy ta'lif muassasalari davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish maqsadida belgilangan tartibda budget mablag'lari hisobiga saqlab turiladigan muassasalardir. Oliy ta'lif muassasalari davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar va budgetdan tashqari mablag'lar tushumlari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi hamda ushbu mablag'lar hisobiga belgilangan tartibda xarajatlarini amalga oshiradi.

Tuychiyev, Ostonokulov, Ibragimov va Tursunovling yondashishicha, Oliy ta'lif muassasalarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosining buxgalteriya hisobining yuritilishi orqali ushbu mablag'lar bo'yicha smetalari ijrosi jarayonida aktivlar va ularning manbalari bo'yicha axborotlar shakllantiriladi hamda taqdim etiladi.<sup>[7]</sup>

Ilmiy tadqiqod ishimdan qisqacha hulosa shuki, xarajatlar smetasini to'g'ri tuzish uchun, qonun hujjatlarida belgilangan tartibga va muddatga qattiq amal qilinsa xato va kamchiliklar kuzatilishi kamdan kam uchraydi.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lif muassasalarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirishning budget tashkiloti hamda budget ijrosi jarayonida axborotlardan foydalanuvchilar uchun ahamiyatini shuningdek, davlat budgeti bilan bevosita bog'liqlikligini aniqlash hamda ularni kengroq izohlab berishni o'zida mujassamlashtiradi. A. Ostonokulov ilmiy monografiyasida yoritib ketgandek, ma'lumotlarning raqamlarda ifolanganligi uchun, asosan miqdoriy va sifat usullaridan foydalaniildi.<sup>[8]</sup>

Tadqiqot jarayonida amaldagi holat, xorij tajribasi, mavjud ma'lumotlar o'rganib tahlil qilingandan so'ng asosan budgetdan moliyalashtiriladigan oliy ta'lif muassasalari smetalari ijrosi hisobi va hisobotlari chuqr tahlildan o'tkaziladi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

## NATIJA VA MUHOKOMA

Oliy ta'lif muassasalarida smetani tuzish budget jarayonidan boshlanadi. Budget jarayoni budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijo etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, budget tizimi budgetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar jarayonini o'z ichiga oladi. Bunda oliy ta'lif muassasalarining smetalari bilan bog'liq jihatlarni quyidagi rasm orgali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm: Budget jarayoni va uning smetalar bilan bog'liqligi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



Davlat budgeti jarayoni yuqorida ko'rsatilgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, davlat budgetidan moliyalashtiriluvchi oliy ta'lif muassasalari va budgetdan mablag' oluvchilarining smetalari bilan uzviy bog'liq sanaladi. Smetalar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni ikkita katta guruhga ajratishimiz mumkin, ya'ni:

- smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish;
- smetalarning ijrosi.

Budgetlarni shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash jarayonida oliy ta'lif muassasalari va budgetdan mablag' oluvchilarining smetalari jamlanadi. Demak, smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish bevosita davlat budgeti ijrosi jarayoni bilan bog'liq hisoblanadi.

Budgetlarni ijob etish va nazoratini amalga oshirish, budget ijrosiga oid hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, budgetlar o'rtafigi o'zaro munosabatlar kabi budget ijrosi jarayonlarida oliy ta'lif muassasalari va budgetdan mablag' oluvchilarining smetalari ijrosiga oid munosabatlar amalga oshiriladi. Oliy ta'lif muassasalarining va budgetdan mablag' oluvchilarining smetalarini tuzish va ijrosini amalga oshirish davlat budgetini tuzish va uning ijrosi bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Budget tashkiloti davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan alohida tashkilot bo'lganligi uchun, ularning smetalari bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish qulay bo'lganligi sababli, tadqiqot ishimiz shu doirada bajarilgan.

Oliy ta'lif muassasalari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalarni tuzish va tasdiqlash belgilangan shaklda keyingi moliya yilining birinchi choragini oyma-oy bo'lgan holda amalga oshiriladi. Bunda, vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan budgetdan ajratiladigan mablag'lar o'tgan moliya yilining oxirgi choragidagi budgetdan ajratiladigan mablag'lardan ortiq bo'imasligi lozim hamda qonun hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar summasiga aniqlashtirilishi mumkin [2].

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun oliy ta'lif muassasalarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari, joriy moliya yilining 25-dekabrigacha tuziladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetalari xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi. bunda, ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida birinchi chorak uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lar vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'lardan kam bo'imasligi kerak.

Moliya organlari tomonidan belgilangan budget parametrlari hamda tegishli ko'rsatmasi asosida oliy ta'lif muassasalari bosh hisobchisi yoki iqtisodchisi tomonidan xarajatlar smetasi tuziladi. xarajatlar smetasi budget tashkiloti tomonidan, yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda:

- xarajatlarning birinchi – uchinchi guruhlari bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratib;
- xarajatlarning to'rtinchi guruhi bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratmasdan tuziladi.
- xarajatlar smetasiga xarajatlarning moddalar bo'yicha to'rtinchi guruhi xarajatlari yoyilmasi, shuningdek davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi ilova qilinadi. xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:
- belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga;
- davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari tomonidan ularga taqdim etilgan budget sohasidagi vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga;
- belgilangan tartibda tasdiqlangan oliy ta'lif muassasalari xarajatlarining normativlariga;
- tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlari va tariflariga.

Jumladan:

- xarajatlar smetasiga ish haqi uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lar qonun hujjatlari bilan belgilangan lavozim maoshlari va bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari, ularga qo'shimcha haq to'lash va ustamalar hamda amaldagi namunaviy shtatlar va shtat normativlariga rioya etilgan holda kiritiladi;
- pedagog xodimlar ish haqi uchun budgetdan ajratiladigan mablag'larni aniqlashda qonun hujjatlarda belgilangan bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalardan, daftarlarni tekshirganlik, sind rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;
- tibbiyot xodimlari ish haqi uchun budgetdan ajratiladigan mablag'larni aniqlashda qonun hujjatlarda muvofiq bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari va shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;
- stipendiya xarajatlari stipendiyalar miqdorlari va stipendiya bilan ta'minlash tartibiga muvofiq hisoblanadi;
- yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga belgilangan stavkalardan va qonun hujjatlariga muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;



- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;
- telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi;
- davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha oliv ta'lif muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar oliv ta'lif muassasalarining har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining natural me'yorlaridan va o'rtacha yillik sonidan kelib chiqib hisoblanadi;
- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar kuniga bir bemorga hisoblangan dori-darmonlar me'yoriga qarab belgilanadi;
- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, ko'rpa-to'shak anjomlari va boshqa yumshoq anjomlar sotib olishga ketadigan xarajatlar mavjud moddiy ta'minotning me'yorlari asosida ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi;
- suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- qo'riqlash faoliyati xizmatlarining to'lovi bilan bog'liq xarajatlar mazkur xizmatlarni yetkazib beruvchilarning tariflariga muvofiq aniqlanadi;
- tashkilotlarning binolar, inshootlar, transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositachi, shuningdek boshqa mulk ijarasi bilan bog'liq xarajatlari qonun hujjatlarida belgilangan xarajatlar me'yori, limitlar va natural ko'satkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;
- xizmat safarlariga xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar proqnoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Xarajatlar smetalarini tuzishda har bir xarajatning iqtisodiy jihatdan asoslangan hisob-kitoblar vositasida asoslanishi, budjet qonunchiligiga oid normativ huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuzilganligi o'rganiladi.

Tadqiqot obyektimiz hisoblangan Termiz davlat universitetining 2021–2022-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetalarini o'rganadigan bo'lsak, unda budjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlarning qisqarganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

**1-jadval:** Termiz davlat universitetining 2021–2022-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetalari rejsi<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar		Farqi	
	2021	2022	Summa	Foiz
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	2394795	1388261,8	-1006533,2	58,0
shundan,				
Asosiy ish haqi	2251344	1330827,7	-920516,3	59,1
Direktor jamg'armasi	86175	33396,1	-52778,9	38,8
Ish beruvchining Ajratmalari	589428	293003	-296425	49,7
shundan,				
Ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov)	588090	292390	-295700	49,7
Boshqa xarajatlar	643621	296526	-347095	46,1
shundan,				
Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	506880	273026	-233854	53,9
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	76898	0	-76898	0,0
<b>JAMI</b>	<b>3627844</b>	<b>1977790,8</b>	<b>-1650053,2</b>	<b>54,5</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2021 va 2022-yillarda budjetdan moliyalashtirish bo'yicha universitetda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi guruh xarajatlari xarajatlar smetalari bo'yicha xarajatlarning iqtisodiy tasnifi asosida rejalaشتirilgan. ushbu xarajatlar barcha xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha o'rganilayotgan yilda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2021-yilda universitetni budjetdan moliyalashtirish hajmi jami 3 627,8 mln. so'mga rejalaشتirilgan bo'lsa, 2022-yilda esa, 1 977,8 mln. so'mlik moliyalashtirish rejalaشتirilgan. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1 650 mln. so'm yoki 54,5 foizga moliyalashtirish hajmi kamaygan.

<sup>2</sup> Termiz davlat universitetining moliyalashtirish hisobotlari asosida tayyorlandi.



Ushbu holatni xarajatlar guruhlari bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, ish va haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1 00 ,5 mln. so'm yoki 58 foizga xarajatlar kam rejalashtirilgan. Ish beruvchining ajratmalari bo'yicha 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 296,4 mln. so'm yoki 49,7 foizga xarajatlar rejasi kamaygan. boshqa xarajatlar guruhi bo'yicha ham shu kabi holatni ko'rishimiz mumkin, 2022-yilda 296,5 mln. so'mlik xarajatlar rejalashtirilgan va o'tgan yilga nisbatan 347,1 mln. so'm yoki 46,1 foizga xarajatlar kam rejalashtirilgan.

Mazkur holat Termiz davlat universitetining budjetdan moliyalashtirish qisqartirilib, to'lov-kontrakt asosida o'qitishni yo'lga qo'yish belgilanganligi bilan izohlash mumkin.

Budget tizimi budgetlari xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda o'zgacha ko'sratkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazu-vchi tegishli budget mablag'larini taqsimlovchilar va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarning buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

Umuman olganda oliy ta'lim muassasalarini xarajatlar sметаларидаги ко'злangan harajatlarning katta qismi davlat budgetidan ajratilar ekan, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash, ular to'g'risida axborotlarni shakllantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari sметаларидаги mablag'lari hisobini qonunchilik asosida yuritilishini ta'minlash zarurdir.

Hozirgi kunda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlarining ochiqligini va tash-kilot xodimlarning faol ishtiroki orqali birinchi navbatda xolisililik va ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanadi. Budget mablag'larni shakllantirish va sarflash yo'nalishlari qay tarzda olib borilayotganligi to'g'risida aniq va tezkor ma'lumotlar olish imkoniyugori bo'ladi.

Oly ta'lrim muassasalarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bilan bog'liq izlanishlar natijasida quvidagi taklif va taysivalarni keltirib o'tish magsadga muvofiq:

- Oliy ta'limga muassasalarining shtatlar jadvalini namunaviy shtatlar jadvali asosida shakllantirilishini ta'minlash, shuningdek, ta'limga muassasalarida tarifikatsiyalarni tuzish va shakllantirishda xodimlar tarkibiga bo'yicha vakantlarga yo'l qo'ymaslik hamda ta'limga tibbiyot tashkilotlarda kontengentlarning o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarni e'tiborga olish;
  - xarajatlar smetasining to'rtinchi guruh kommunal xizmat xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asosliligini ta'minlash;
  - Oliy ta'limga muassasalarining smetalarini ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini yanada kengaytirish orqali smetalarni tuzish jarayonini soddalashtirish, smetalarga o'zgartirishlarni imkon qadar oldini olish;
  - smetalarning ijrosi hisobini tashkil etish va yuritish, smetalar ijrosiga oid moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish hamda nazoratini takomillashtirish bo'yicha uslubiy asoslarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

## Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. lex.uz>docs/5841063
  2. O'zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'isidagi” Qonuni. 2022-yil 25-dekabr, O'RQ-657-son. lex.uz>docs/5186044
  3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda “Oliy ta'lif muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 414-sonli qarori. lex.uz>docs/319286
  4. Ostanaqulov M. Buxgalteriya hisobi. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2007.
  5. Сахарцева М.А. Бюджетный учет и отчетность: учебное пособие. – Ульяновск : УлГТУ, 2010.
  6. Mehmmonov S.U., Kuliboyev A.Sh. Oliy ta'lif muassasalarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma, “Iktisod-moliya” 2018. 186 b.
  7. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2018. 428 b.
  8. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. “Byudjet nazorati va audit” O'quv qo'llanma / T.: “infocom.Uz”. 2009. 192 b.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.